

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA SPORT HUQUQI RIVOJLANISHINING
TENDENSIYALARI

Anvarov Demirali Taxir o'g'li

Toshkent davlat yuridik universiteti

«Xalqaro huquq va qiyosiy huquqshunoslik» fakulteti 3-bosqich talabasi.

e-mail: anvarovdemirali@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.21603901>

Annotatsiya. Mazkur maqolada O'zbekiston Respublikasida sport huquqining mustaqil kompleks huquq sohasi sifatida shakllanish tendensiyalari, uning me'yoriy-huquqiy asoslari hamda amaliyotda kuzatilayotgan zamonaviy muammolar tahlil qilinadi. Xususan, sportchining huquqiy maqomidagi dualizm, professional sport shartnomalari va transfer tizimidagi bo'shliqlar, antidoping sohasidagi institutsional islohotlar, milliy sport arbitraji institutining mavjud emasligi, sport sohasidagi davlat boshqaruvi vakolatlarining mujmalligi hamda yosh sportchilar va nogironligi bo'lgan shaxslar sportini huquqiy himoya qilish masalalari ko'rib chiqiladi. Rossiya Federatsiyasi, Fransiya va xalqaro sport tashkilotlari (XOQ, FIFA, CAS) tajribasi qiyosiy tahlil qilinib, aniqlangan muammolarning yechimi yuzasidan muallif tomonidan bir qator ilmiy-amaliy takliflar ilgari surilgan.

Kalit so'zlar: sport huquqi, jismoniy tarbiya va sport to'g'risidagi qonun, sportchining huquqiy maqomi, professional sport shartnomasi, transfer tizimi, antidoping, sport arbitraji, CAS, Olimpiya harakati, O'zbekiston Respublikasi.

Аннотация. В настоящей статье анализируются тенденции формирования спортивного права как самостоятельной комплексной отрасли права в Республике Узбекистан, его нормативно-правовые основы, а также современные проблемы правоприменительной практики. В частности, рассматриваются дуализм правового статуса спортсмена, пробелы в регулировании профессиональных спортивных контрактов и трансферной системы, институциональные реформы в антидопинговой сфере, отсутствие национального института спортивного арбитража, неопределённость полномочий органов государственного управления спортом, а также вопросы правовой защиты несовершеннолетних спортсменов и лиц с инвалидностью в спорте. На основе сравнительно-правового анализа опыта Российской Федерации, Франции и международных спортивных организаций (МОК, ФИФА, CAS) автором предложен ряд научно-практических рекомендаций по решению выявленных проблем.

Ключевые слова: спортивное право, закон о физической культуре и спорте, правовой статус спортсмена, профессиональный спортивный контракт, трансферная система, антидопинг, спортивный арбитраж, CAS, олимпийское движение, Республика Узбекистан.

Abstract. This article examines the trends in the formation of sports law as an independent complex branch of law in the Republic of Uzbekistan, its regulatory foundations, and contemporary problems observed in practice. In particular, it addresses the dualism of an athlete's legal status, gaps in the regulation of professional sports contracts and the transfer system, institutional reforms in the anti-doping sphere, the absence of a national sports arbitration institution, ambiguity in the powers of state sports administration bodies, and issues of legal protection of minor athletes and persons with disabilities in sport.

Based on a comparative-legal analysis of the experience of the Russian Federation, France, and international sports organizations (IOC, FIFA, CAS), the author puts forward a number of scientific and practical recommendations for addressing the identified problems.

Keywords: *sports law, law on physical culture and sport, legal status of an athlete, professional sports contract, transfer system, anti-doping, sports arbitration, CAS, Olympic movement, Republic of Uzbekistan.*

I. Kirish

So'nggi o'n yillikda O'zbekiston Respublikasida sport sohasi nafaqat ijtimoiy-madaniy, balki huquqiy-institutsional jihatdan ham tub o'zgarishlarni boshdan kechirmoqda.

Mamlakatimizda yuqori natijalarga erishish sporti bilan bir qatorda ommaviy sport, adaptiv sport va professional sport tobora kengroq huquqiy tartibga solishni talab qilmoqda. Sportning ijtimoiy munosabatlar tizimida tutgan o'rni kengaygani sari, uni tartibga soluvchi huquqiy normalarning ham murakkablashuvi tabiiy jarayon hisoblanadi.

Sport huquqi, xalqaro huquqshunoslikda "lex sportiva" atamasi bilan ham yuritiladigan, fuqarolik, mehnat, ma'muriy va xalqaro huquq elementlarini o'zida mujassam etgan kompleks huquq sohasi sifatida shakllanmoqda [13]. Kanaatimizcha, aynan ushbu kompleks-tarmoqlararo xarakter sport huquqini alohida ilmiy tadqiqot predmetiga aylantiradi, chunki uning normalari fuqarolik kodeksi, mehnat kodeksi va ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeks kabi "klassik" tarmoqlar doirasida to'liq qamrab olinmaydi.

Mazkur maqolaning dolzarbligi bir necha omil bilan izohlanadi. Birinchidan, 2026-yil 24-martda O'zbekiston Respublikasining "Jismoniy tarbiya va sport to'g'risida"gi Qonuni yangi tahrirda (O'RQ-1123-son) qabul qilindi [4], bu esa sohani ilmiy-huquqiy jihatdan qayta anglash zaruratini keltirib chiqaradi. Ikkinchidan, O'zbekiston 2026-yilda Butunjahon antidoping kodeksi-2027 talablariga milliy qonunchiligini to'liq moslashtirgan birinchi davlat sifatida e'tirof etildi [24], bu yutuq bilan bir qatorda amaliyotda bir qator institutsional muammolarning saqlanib qolayotganini ham ko'rsatadi. Uchinchidan, professional sportning tijoratlashuvi, xususan futbol transferlari sohasida O'zbekiston Futbol Assotsiatsiyasining FIFA standartlariga asoslangan reglamenti amal qilishi [19], milliy fuqarolik va mehnat qonunchiligi bilan xalqaro sport tashkilotlari normalari o'rtasidagi nisbatni tadqiq etishni taqozo etadi.

Tadqiqotning maqsadi – O'zbekiston Respublikasida sport huquqining shakllanish tendensiyalarini ochib berish, sohadagi zamonaviy huquqiy muammolarni aniqlash, xorijiy davlatlar va xalqaro sport tashkilotlari tajribasini qiyosiy tahlil qilish hamda aniqlangan muammolarning yechimi yuzasidan ilmiy-amaliy takliflarni ishlab chiqishdan iborat.

Mavzuni izchil yoritish maqsadida, dastlab bir qator asosiy tushunchalarni aniqlashtirib olish maqsadga muvofiqdir:

- Sport huquqi (lex sportiva) – jismoniy tarbiya va sport sohasida yuzaga keladigan ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi, fuqarolik, mehnat, ma'muriy va xalqaro-huquqiy normalarni o'zida mujassam etgan kompleks huquq sohasi [11].
- Sportchining huquqiy maqomi – sportchining sport tashkiloti, davlat organlari va boshqa sub'ektlar bilan bo'lgan munosabatlarida ega bo'lgan huquq va majburiyatlar majmuasi bo'lib, u fuqarolik-huquqiy, mehnat-huquqiy va sport-tashkiliy elementlarni o'z ichiga oladi [14].

- Sport arbitraji – sport sohasida yuzaga keladigan nizolarni davlat sudlari tashqarisida, maxsus ixtisoslashgan, tezkor va konfidensial protsedura asosida hal etishga qaratilgan alternativ nizo hal etish mexanizmi (xalqaro amaliyotda – Lozannadagi Sport Arbitraj Sudi, CAS).

II. Sport huquqining tushunchasi va O'zbekistonda huquqiy tartibga solishning me'yoriy-huquqiy asoslari

Sport huquqining mustaqil huquq sohasi sifatida shakllanish jarayoni O'zbekiston yuridik fanida nisbatan yangi tadqiqot yo'nalishi hisoblanadi. Xayotov sport huquqining vujudga kelish bosqichlarini tahlil qilar ekan, uning tarixiy taraqqiyotini uch bosqichga – havaskorlik sporti davri, sportning institutsionalizatsiyalashuvi davri va professional-tijoriy sport davriga bo'lib o'rganadi [13]. Kanaatimizcha, ushbu davrlashtirish O'zbekiston sharoitiga ham to'liq tatbiq etiladi: agar mustaqillikning dastlabki yillarida sport asosan davlat tomonidan moliyalashtiriladigan ijtimoiy soha sifatida qaralgan bo'lsa, so'nggi o'n yillikda professional sport klublari, sponsorlik shartnomalari va transfer bitimlari kabi tijoriy elementlarning kuchayishi kuzatilmoqda.

Musaev o'zining "Правовое регулирование спортивных отношений" nomli monografiyasida sport huquqiy munosabatlarining tarmoqlararo xususiyatga ega ekanligini asoslab beradi [11]: muallifning fikricha, sport sohasidagi munosabatlar bir vaqtning o'zida ham fuqarolik-huquqiy (shartnoma, javobgarlik), ham mehnat-huquqiy (mehnat shartnomasi, ish vaqti, dam olish), ham ma'muriy-huquqiy (litsenziyalash, davlat nazorati) tabiatga ega bo'lishi mumkin.

Bizningcha, aynan shu ko'p qatlamlilik O'zbekiston qonunchiligida sport munosabatlarini yagona kodifikatsiyalangan hujjat – masalan, "Sport kodeksi" – shaklida emas, balki bir nechta parallel normativ hujjatlar (asosiy qonun, mehnat kodeksi normalari, xalqaro federatsiyalar reglamentlari) orqali tartibga solishni taqozo etmoqda.

Xalqaro huquqshunoslikda "lex sportiva" tushunchasi yanada kengroq ma'noda – ya'ni xalqaro sport federatsiyalari (FIFA, FINA, World Athletics va boshqalar) tomonidan ishlab chiqilgan, milliy qonunchilikdan qisman mustaqil, ammo amalda barcha a'zo davlatlar uchun majburiy ahamiyatga ega bo'lgan "yumshoq huquq" (soft law) normalari majmuasi sifatida ham talqin etiladi. Kanaatimizcha, ushbu ikkinchi ma'no O'zbekiston uchun alohida amaliy ahamiyat kasb etadi, zero milliy sport federatsiyalari (masalan, O'zbekiston Futbol Assotsiatsiyasi, O'zbekiston Boks federatsiyasi) o'z ustavlariga ko'ra tegishli xalqaro federatsiyalarning reglamentlarini bevosita qo'llashga majburlar, bu esa amalda milliy qonunchilik bilan xalqaro sport tashkilotlari normalari o'rtasida murakkab ierarxik munosabatni yuzaga keltiradi.

O'zbekiston Respublikasida jismoniy tarbiya va sport sohasini tartibga soluvchi asosiy qonun uzoq va bosqichma-bosqich evolyutsiyani bosib o'tdi. Birinchi milliy qonun 1992-yil 14-yanvarda, 513-XII-son bilan qabul qilingan bo'lib, u mustaqillikning dastlabki yillaridagi sport siyosatining asosiy yo'nalishlarini belgilagan edi [2]. 2015-yil 4-sentabrda esa O'RQ-394-son Qonun bilan mazkur hujjat yangi tahrirda, 8 bob va 47 moddadan iborat holda qabul qilindi [3], unda birinchi marta "sport pasporti" instituti, sportchi sport diskvalifikatsiyasi tushunchasi va sport ta'lim muassasalari faoliyatining tafsilotlari mustahkamlandi.

Alohida ta'kidlash lozimki, 2026-yil 24-martda – Qonunchilik palatasi tomonidan 2025-yil 23-dekabrda qabul qilinib, Senat tomonidan 2026-yil 5-fevralda ma'qullangandan so'ng – O'RQ-1123-son bilan Qonunning butunlay yangi tahriri kuchga kirdi [4]. Yangi tahrirning bizningcha eng muhim yangiliklaridan biri shundaki, unda birinchi marta alohida modda (15-modda) havaskorlik sporti va professional sportni bir-biridan ajratib, fuqarolarning sportchi, trener yoki

sport hakami sifatida faoliyat yuritish huquqini alohida mustahkamlaydi [4]. Bundan tashqari, Qonunda Milliy Olimpiya qo'mitasi va Milliy paralimpiya qo'mitasining huquqiy maqomi, ularning Xalqaro Olimpiya qo'mitasi Olimpiya xartiyasiga muvofiq mustaqil faoliyat yuritishi alohida boblarda tafsilotli tartibga solingan [4].

Kanaatimizcha, ushbu yangi tahrirning qabul qilinishi sport sohasidagi qonunchilikni xalqaro standartlarga muvofiqlashtirish yo'lidagi muhim qadam bo'lsa-da, quyida ko'rsatilganidek, bir qator tizimli muammolar hali ham o'z yechimini kutmoqda.

Alohida qiziqarli jihat sifatida shuni qayd etish lozimki, 2015-yilgi tahrirda kiritilgan "sport pasporti" instituti – sportchining sport faoliyati davomidagi barcha ko'rsatkichlarini (musobaqalarda ishtirok etish, tibbiy ko'rik natijalari, unvon va razryadlar) monitoring qilish uchun mo'ljallangan hujjat – hozirgi raqamlashtirish davrida yanada rivojlantirilishi mumkin. Bizningcha, sport pasportini yagona elektron platformaga o'tkazish, uni Milliy antidoping agentligining ADAMS tizimi va sportchilarning tibbiy ma'lumotlar bazasi bilan integratsiyalash orqali sportchilarning butun faoliyat tarixini yagona raqamli "reestr"da jamlash mumkin bo'lar edi – bu esa nafaqat boshqaruv samaradorligini, balki sportchi huquqlarining shaffof himoyasini ham ta'minlaydi.

Qonunning 2-moddasida mustahkamlangan muhim qoidaga ko'ra, agar O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomasida milliy jismoniy tarbiya va sport to'g'risidagi qonunchilikda nazarda tutilganidan boshqacha qoidalar belgilangan bo'lsa, xalqaro shartnoma qoidalari qo'llaniladi. Kanaatimizcha, ushbu norma amaliyotda alohida ahamiyat kasb etadi, zero u orqali Butunjahon antidoping kodeksi, Olimpiya xartiyasi va xalqaro federatsiyalarning asosiy reglamentlari amalda milliy qonundan ustun normativ kuchga ega bo'lib qoladi. Bizningcha, bu yondashuv, bir tomondan, O'zbekistonning xalqaro sport hamjamiyati bilan integratsiyasini ta'minlashning to'g'ri huquqiy vositasi bo'lsa, ikkinchi tomondan – milliy sudlar va huquqni qo'llovchi organlar uchun aniq "kollizion qoidalar" (qaysi xalqaro hujjat qachon ustuvor qo'llanilishi) ishlab chiqilishini ham taqozo etadi, aks holda amaliyotda turlicha talqin qilish xavfi saqlanib qoladi.

Amaldagi qonunchilikka ko'ra, jismoniy tarbiya va sport sohasidagi davlat boshqaruvi bir nechta davlat organi o'rtasida taqsimlangan: Vazirlar Mahkamasi, maxsus vakolatli davlat organi (Sport vazirligi), Sog'liqni saqlash vazirligi, Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi, Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi hamda mahalliy davlat hokimiyati organlari [4]. Har bir organning vakolatlari qonunning tegishli moddalarida (7–12-moddalar) alohida-alohida sanab o'tilgan.

Bizningcha, bunday "kengaytirilgan" boshqaruv modeli, bir tomondan, sportni turli ijtimoiy sohalar (ta'lim, sog'liqni saqlash) bilan uzviy bog'liq holda rivojlantirish imkonini bersa, ikkinchi tomondan – amaliyotda vakolatlar mujmalligi va idoralararo muvofiqlashtirish muammosini keltirib chiqaradi. Quyida 3.5-bandda ushbu masala batafsilroq tahlil qilinadi.

III. Sport huquqini rivojlantirishdagi zamonaviy muammolar

Sportchining huquqiy maqomi masalasi zamonaviy sport huquqshunosligidagi eng dolzarb va bahstlab mavzulardan biri hisoblanadi. Xayotov sportchining huquqiy holatini "murakkab va ko'p qirrali kategoriya" sifatida ta'riflab, uning fuqarolik, mehnat, ma'muriy va sport huquqi elementlarini o'z ichiga olishini asoslaydi [14].

Muallifning fikricha, sportning ommalashuvi va xalqaro sport aloqalarining kengayishi sharoitida ushbu maqomning huquqiy tabiatini aniq belgilash alohida dolzarblik kasb etadi.

Amaliyotda ushbu dualizm shunday namoyon bo'ladi: professional sportchi bir tomondan sport tashkiloti (klub, federatsiya) bilan mehnat shartnomasiga o'xshash munosabatga kirishadi (ish haqi, mehnat tartib-qoidalariga rioya qilish), ikkinchi tomondan esa uning faoliyati ko'p jihatdan fuqarolik-huquqiy tabiatga ega bo'lgan sport federatsiyasi reglamentlari (transfer qoidalari, diskvalifikatsiya sanksiyalari) bilan tartibga solinadi. Rustamov to'g'ri ta'kidlaganidek, O'zbekiston qonunchiligiga binoan sport faoliyati to'g'risidagi har qanday shartnoma – mehnat, fuqarolik yoki aralash – mehnat qonunchiligi asosida tuzilishi lozim, biroq amaliyotda ushbu ikki huquqiy rejim o'rtasidagi chegara ko'pincha noaniq bo'lib qolmoqda [18].

Kanaatimizcha, bu noaniqlik amaliy jihatdan jiddiy oqibatlariga olib kelishi mumkin: masalan, sportchi jarohat olib faoliyatini davom ettira olmay qolgan taqdirda, uning ijtimoiy sug'urta huquqlari mehnat shartnomasi bo'yicha aniqlanadimi yoki sport federatsiyasi reglamentidagi maxsus qoidalar bo'yichami – degan savol qonunchilikda yetarlicha aniq javob topmaydi. Bizningcha, aynan mana shu bo'shliq sportchilar huquqlarining amaliy himoyasini murakkablashtirmoqda.

Bundan tashqari, kanaatimizcha, sportchi martaba yakunlangandan keyingi davr (post-career transition) uchun ijtimoiy-huquqiy kafolatlar masalasi ham alohida e'tiborga loyiqdir. Professional sportchining martaba davri odatda 30–35 yoshgacha cheklangan bo'lib, bu boshqa kasb turlaridan tubdan farq qiladi; shu sababli sportchining kasbiy faoliyatni tugatgandan so'ng qayta ixtisoslashuvi (retraining), ijtimoiy sug'urta stajining hisoblanishi va nafaqa ta'minoti kabi masalalar mehnat qonunchiligining umumiy normalaridan farqli, sport sohasiga xos maxsus tartibga solishni talab qiladi. Bizning fikrimizcha, "sportchi martabasi" tushunchasining o'zini qonun darajasida mustahkamlab, unga bog'liq ijtimoiy kafolatlar tizimini alohida ishlab chiqish maqsadga muvofiqdir.

O'zbekiston Futbol Assotsiatsiyasining "Futbolchilar maqomi va transferi bo'yicha reglamenti" (2021-yil tahriri) FIFA ning "Futbolchilar maqomi va transferi bo'yicha reglamenti"ga (FIFA RSTP) asoslanib ishlab chiqilgan bo'lib, unda professional shartnoma, mashg'ulot kompensatsiyasi va birdamlik mexanizmi to'lovi kabi institutlar batafsil tartibga solingan [19]. Xususan, reglamentga ko'ra, agar shartnoma sportchi 28 yoshga to'lgandan so'ng tuzilgan bo'lsa, "barqarorlik davri" ikki yilgacha qisqaradi [19, 20] – bu FIFA standartlariga to'liq muvofiq keladigan qoidadir.

Biroq Rustamov ilmiy maqolasida asosli ravishda ta'kidlaganidek, sport sohasidagi shartnomaviy munosabatlarning ayrim jihatlari – xususan, voyaga yetmagan sportchilarning shartnomaviy layoqati masalasi – O'zbekiston qonunchiligida yetarlicha tartibga solinmagan [18, 12]. Bizningcha, bu bo'shliq ayniqsa iqtidorli yosh futbolchilar va boshqa individual sport turlari vakillarini xorijiy klublar tomonidan "kashf etish" amaliyoti kuchayib borayotgan hozirgi sharoitda alohida xavf tug'diradi: agar milliy qonunchilikda voyaga yetmagan sportchi bilan tuzilgan shartnomalarning maksimal muddati, ota-onalar yoki qonuniy vakillarning roziligi tartib-taomili va bunday shartnomalarni bekor qilishning maxsus asoslari aniq belgilanmasa, yosh iste'dodlarning huquqlari amalda FIFA reglamentidagi umumiy normalarga qoldirilib ketadi, bu esa milliy sport siyosatining mustaqilligiga putur yetkazishi mumkin.

Bundan tashqari, kanaatimizcha, sport agentlari faoliyatini litsenziyalash tizimining O'zbekistonda hali yetarli darajada institutsionalizatsiya qilinmaganligi alohida muammo hisoblanadi: agentlar orqali amalga oshiriladigan transfer bitimlarida moliyaviy shaffoflik va sportchi manfaatlarining himoyasi ko'p jihatdan agentning fidokorona harakat qilish majburiyatiga (fiduciary duty) bog'liq bo'lib qoladi, biroq bu majburiyatning huquqiy mazmuni milliy qonunchilikda alohida ochib berilmagan.

Alohida ta'kidlash joizki, O'zbekiston antidoping sohasida so'nggi yillarda sezilarli institutsional yutuqlarga erishdi. 2018-yil 3-yanvarda Milliy antidoping agentligi tashkil etilgan bo'lib [25], uning faoliyati 2021, 2023 va 2025-yillardagi bir qator Prezident qarorlari bilan izchil takomillashtirib borilmoqda [6, 7, 8]. 2026-yil yanvar oyida Pekinda bo'lib o'tgan Osiyo mintaqaviy simpoziumida O'zbekiston milliy qonunchiligini "Jahon antidoping kodeksi–2027" talablariga to'liq moslashtirgan dunyodagi birinchi davlat sifatida e'tirof etildi [24] – bu, shubhasiz, mamlakatning xalqaro sport hamjamiyati oldidagi obro'sini oshiruvchi muhim yutuqdir.

Shunga qaramay, kanaatimizcha, qonunchilik darajasidagi muvofiqlashtirish bilan amaliy ijro o'rtasida sezilarli farq saqlanib qolmoqda. Xususan, "qat'iy javobgarlik" (strict liability) tamoyili asosida sportchining o'z organizmida taqiqlangan modda aniqlanishining o'zi ADRV (antidoping qoidabuzarligi) uchun yetarli asos hisoblanishi – garchi bu tamoyil Butunjahon antidoping kodeksining o'zgarmas negizi bo'lsa-da – milliy huquqiy adabiyotda sportchining himoya huquqlari (masalan, kontaminatsiya holatlarida ayblovni inkor etish yuki taqsimoti) masalasi yetarlicha tadqiq etilmagan. Bizningcha, milliy antidoping intizomiy tribunali tarkibida doimiy faoliyat yurituvchi, sport huquqi bo'yicha ixtisoslashgan mustaqil huquqshunoslarning yetishmasligi sportchilarning adolatli sud (fair hearing) huquqini amalda cheklashi mumkin.

Bizningcha, O'zbekiston sport huquqi tizimidagi eng jiddiy tizimli bo'shliqlardan biri – milliy ixtisoslashgan sport arbitraji institutining mavjud emasligidir. Xalqaro amaliyotda sport sohasidagi nizolar (transfer bitimlaridagi kelishmovchiliklar, diskvalifikatsiya qarorlariga shikoyat, antidoping intizomiy qarorlarini qayta ko'rib chiqish) asosan Lozannadagi Sport Arbitraj Sudi (Court of Arbitration for Sport, CAS) doirasida ko'rib chiqiladi. Biroq CAS'ga murojaat qilish O'zbekistonlik sportchilar va sport tashkilotlari uchun sezilarli moliyaviy va tashkiliy xarajatlarni talab qiladi – arbitraj yig'inlari, xorijsa sayohat, xalqaro huquqshunoslarning xizmat haqi kabi omillar ko'pchilik milliy sport sub'ektlari uchun amalda amalga oshirib bo'lmaydigan yuk bo'lib qolmoqda.

Qiziqarli jihati shundaki, O'zbekiston tijorat nizolarini alternativ hal etish sohasida ancha ilg'or tajribaga ega: 2020-yil 5-avgustda qabul qilingan "Xalqaro tijorat arbitraji to'g'risida"gi qonun [9] YuNSITRALning 1985-yildagi (2006-yildagi o'zgartirishlar bilan) Namunaviy qonuni asosida ishlab chiqilgan bo'lib, O'zbekiston Savdo-Sanoat palatasi huzuridagi Xalqaro tijorat arbitraj sudi 2011-yildan buyon muvaffaqiyatli faoliyat yuritib kelmoqda [28]. Kanaatimizcha, aynan mana shu institutsional va huquqiy tajriba – arbitraj bitimi tushunchasi, arbitrlarni tayinlash tartib-taomili, arbitraj qarorlarini tan olish va ijro etish mexanizmi – milliy sport arbitraji institutini yaratishda tayanch sifatida to'liq qo'llanilishi mumkin edi, biroq bu imkoniyat hozircha amalga oshirilmagan.

Yuqorida 2.3-bandda ko'rsatilganidek, jismoniy tarbiya va sport sohasidagi davlat boshqaruvi bir nechta vazirlik va idora o'rtasida taqsimlangan. Amaliyotda bu holat, xususan, maktab va oliy ta'lim tizimidagi jismoniy tarbiya darslari sifatini nazorat qilish (Maktabgacha va

maktab ta'limi vazirligi hamda Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi vakolati), sport tibbiyoti xizmatlarini ko'rsatish (Sog'liqni saqlash vazirligi vakolati) va yuqori natijalarga erishish sportini rivojlantirish (Sport vazirligi vakolati) o'rtasidagi muvofiqlashtirishda amaliy qiyinchiliklarni keltirib chiqarmoqda.

Bizningcha, bunday "gorizontal" boshqaruv modelining o'zi tanqidga loyiq emas – aksincha, ko'plab rivojlangan davlatlar (masalan, Fransiya, Germaniya) ham sport boshqaruvini bir nechta vazirlik o'rtasida taqsimlaydi. Muammo boshqaruv modelining o'zida emas, balki idoralararo muvofiqlashtiruvchi doimiy mexanizmning (masalan, barcha manfaatdor vazirliklar vakillaridan iborat Muvofiqlashtiruvchi kengash) institutsional jihatdan yetarlicha mustahkamlanmaganligida, deb hisoblaymiz.

O'zbekiston so'nggi yillarda paralimpiya va adaptiv sportni rivojlantirish borasida sezilarli qadamlar qo'ydi: xususan, Paralimpiya qo'mitasi huzurida Paralimpiya sport turlari bo'yicha mutaxassislarni tayyorlash instituti tashkil etilgan, O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universitetida Paralimpiya fakulteti ochilgan [30]. Yangi qonunning 43-moddasi ham "Adaptiv jismoniy tarbiya va sport. Nogironligi bo'lgan shaxslarni jismoniy reabilitatsiya qilish" masalalariga alohida bag'ishlangan [4].

Shunga qaramay, kanaatimizcha, adaptiv sport sohasidagi huquqiy tartibga solish hali ham asosan "asosiy" sport qonunchiligining bir bo'limi sifatida qolib kelmoqda, aksincha xalqaro amaliyotda (masalan, Buyuk Britaniya va Avstraliyada) nogironligi bo'lgan sportchilarning maxsus huquqlari (moslashtirilgan sport inshootlaridan foydalanish, maxsus tibbiy-reabilitatsion ta'minot, tenglashtirilgan moliyaviy rag'batlantirish) ko'pincha alohida qonun hujjatlarida yoki hech bo'lmaganda batafsil pastki-qonun hujjatlarida mustahkamlanadi. Bizningcha, paralimpiya sportchilarining moliyaviy rag'batlantirish (mukofot puli, stipendiya) darajasini olimpiya sportchilari bilan tenglashtirish masalasi alohida ijtimoiy-huquqiy dolzarblik kasb etadi.

Yangi qonunning 40-moddasi "Sport musobaqalari natijalariga qonunga xilof ravishda ta'sir ko'rsatishning oldini olish va unga qarshi kurashish" masalasiga alohida bag'ishlangan [4], bu esa qonunchilikning xalqaro tendensiyalarga muvofiqlashtirilganini ko'rsatadi – zero, jahon sport hamjamiyatida match-fixing muammosi so'nggi o'n yillikda onlayn bukmekerlik faoliyatining kengayishi bilan keskin dolzarblashdi. Biroq amaliy jihatdan, kanaatimizcha, ushbu modda deklarativ xarakterga ega bo'lib qolmasligi uchun uni amalga oshiruvchi aniq protsessual mexanizmlar – masalan, sport tashkilotlari va huquqni muhofaza qilish organlari o'rtasida operativ axborot almashish tartibi – alohida pastki-qonun hujjati bilan mustahkamlanishi zarur.

Sport huquqi doktrinasida nisbatan kam o'rganilgan, ammo amaliy ahamiyati yuqori bo'lgan yo'nalishlardan biri – bu sport tadbirlari tomoshabinlari va muxlislarining maxsus iste'molchi sifatidagi huquqiy maqomi masalasidir. Ushbu mavzu bo'yicha o'tkazilgan tadqiqotda fuqarolarning maxsus sport xizmatlari iste'molchisi sifatidagi huquqlari bilan bog'liq munosabatlarni huquqiy tartibga solishni takomillashtirish zarurati asoslab berilgan, jumladan chipta sotib olish shartnomasining huquqiy tabiati, tadbir bekor qilingan yoki ko'chirilgan taqdirda tomoshabinning huquqlari kabi masalalar ko'tarib chiqilgan [31].

Kanaatimizcha, mazkur masala O'zbekistonda stadionlar va sport inshootlarining zamonaviylashuvi, xususan yirik xalqaro musobaqalarni qabul qilish amaliyoti kengayib borayotgan sharoitda tobora dolzarblashadi. Bizning fikrimizcha, "Iste'molchilar huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi umumiy qonunchilik normalari sport xizmatlari sohasiga mexanik

tarzda tatbiq etilishi kifoya emas – zero, sport tadbiri o'ziga xos xususiyatlarga (obyektiv ravishda oldindan bilib bo'lmaydigan natija, xavfsizlik talablarining yuqoriligi, ommaviy tartibni saqlash zarurati) ega. Shu sababli, sport tadbirlarida tomoshabinlar huquqlarini tartibga soluvchi maxsus normalarning – masalan, chipta narxini qaytarish, tadbir sifatsiz o'tkazilgan taqdirda javobgarlik kabi masalalarning – "Jismoniy tarbiya va sport to'g'risida"gi qonunga yoki alohida pastki-qonun hujjatiga kiritilishi maqsadga muvofiqdir.

Alohida tashvishli tendensiya sifatida so'nggi yillarda bukmekerlik faoliyatining ijtimoiy munosabatlarga keng yoyilishini, shu jumladan bunday faoliyatning asosiy "iste'molchilari" orasida voyaga yetmaganlarning ham uchrashini qayd etish lozim [18]. Bizningcha, sport musobaqalari natijalariga tikish (betting) faoliyatining sport sohasidagi huquqiy munosabatlar bilan chambarchas bog'liqligi – xususan yuqorida 3.7-bandda ko'rsatilgan match-fixing xavfi bilan bevosita aloqadorligi – ushbu ikki sohani (sport huquqi va bukmekerlik faoliyatini tartibga solish) birgalikda, muvofiqlashtirilgan tarzda tadqiq etishni taqozo etadi.

Kanaatimizcha, voyaga yetmaganlarning bukmekerlik shartnomalariga jalb etilishining oldini olish maqsadida identifikatsiya va yosh tekshiruvi tizimlarini majburiy tarzda joriy etish, shuningdek sport federatsiyalari va bukmekerlik operatorlari o'rtasida shubhali tikish faolligi to'g'risida axborot almashish protokolini institutsionalizatsiya qilish zarur. Bu borada Yevropa sport federatsiyalari tomonidan qo'llanilayotgan "erta ogohlantirish tizimi" (early warning system) amaliyoti o'rganilishi foydali bo'lar edi.

IV. Xorijiy davlatlar va xalqaro sport tashkilotlari tajribasining qiyosiy-huquqiy tahlili

Rossiya Federatsiyasida sport sohasi 2007-yil 4-dekabrdagi 329-FZ-son "Rossiya Federatsiyasida jismoniy madaniyat va sport to'g'risida"gi Federal qonun bilan tartibga solinadi [26]. Ushbu qonunning o'ziga xos jihati shundaki, unda sportchining huquqiy maqomi alohida bobda, jumladan sport federatsiyalari tomonidan tasdiqlangan intizomiy sanksiyalarni qo'llash tartib-taomillari bilan birga batafsil tartibga solingan. Kanaatimizcha, Rossiya modeli O'zbekiston uchun ayniqsa sportchi-federatsiya munosabatlaridagi intizomiy javobgarlik institutini takomillashtirish nuqtai nazaridan foydali tajriba bo'lishi mumkin.

Fransiyaning "Code du sport" (Sport kodeksi) sport sohasini yagona kodifikatsiyalangan hujjat sifatida tartibga soladi, unda jismoniy tarbiya, sport federatsiyalari, sportchilarning ijtimoiy himoyasi va antidoping masalalari bir-biriga uzviy bog'langan holda joylashtirilgan. Bizningcha, aynan mana shu kodifikatsiya modeli – alohida qonunlar ko'plab bo'lib ketishining o'rniga, yagona tizimlashtirilgan hujjat – O'zbekiston uchun uzoq muddatli istiqbolda o'rganilishi lozim bo'lgan yo'nalish hisoblanadi, garchi bunday kodifikatsiya, albatta, uzoq muddatli va bosqichma-bosqich huquq ijodkorligi ishini talab qiladi.

Xayotov Xalqaro Olimpiya qo'mitasining xalqaro huquqiy layoqati masalasini tahlil qilar ekan, XOQning Olimpiya Xartiyasiga asoslangan qarorlari xalqaro huquq sub'ektlari, jumladan davlatlar uchun ham amalda majburiy ahamiyat kasb etishini ko'rsatadi [16]. Bizningcha, bu xulosa nafaqat nazariy, balki amaliy ahamiyatga ham ega: milliy qonunchilik Olimpiya harakati bilan bog'liq normalarni ishlab chiqishda doimo Olimpiya Xartiyasi talablarini "ustuvor" xalqaro standart sifatida hisobga olishi lozim, aks holda milliy Olimpiya qo'mitasining xalqaro sport maydonidagi maqomi tahdid ostida qolishi mumkin.

CAS'ning arbitraj amaliyoti, xususan, doping bilan bog'liq nizolarda "qat'iy javobgarlik" tamoyilini izchil qo'llab kelayotgani, biroq shu bilan birga sportchining aybini yengillashtiruvchi holatlarni (masalan, "muhim aybsizlik" – no significant fault or negligence) hisobga olish amaliyotini ham rivojlantirgani, kanaatimizcha, O'zbekiston milliy antidoping intizomiy amaliyoti uchun muhim yo'l-yo'riq bo'lib xizmat qilishi mumkin.

Narimanov va Xayotov qo'shma tadqiqotida xalqaro sport tadbirlarida sportchilar va boshqa ishtirokchilarning huquqlari buzilgan taqdirda tashkilotchi davlatning xalqaro-huquqiy javobgarligi masalasini ko'tarib chiqadilar [17]. Mualliflarning fikricha, yirik xalqaro sport tadbirlarini (jahon chempionatlari, mintaqaviy o'yinlar) tashkil etuvchi davlat nafaqat tashkiliy-texnik, balki xalqaro-huquqiy ma'noda ham ishtirokchilarning xavfsizligi va huquqlarini ta'minlash bo'yicha muayyan majburiyatlarni o'z zimmasiga oladi. Bizningcha, O'zbekiston kelgusida yanada yirikroq xalqaro sport tadbirlarini (masalan, Osiyo o'yinlari darajasidagi musobaqalarni) qabul qilish istiqbolini ko'zda tutgan holda, ushbu xalqaro-huquqiy javobgarlik masalasini milliy qonunchilikda oldindan aniqlashtirib olishi maqsadga muvofiqdir.

Yaqin Sharq mintaqasi davlatlari, xususan Qatar va BAA, so'nggi o'n yillikda yirik xalqaro sport tadbirlarini (jumladan, 2022-yilgi FIFA Jahon chempionati) qabul qilish orqali sport huquqi va sport diplomatiyasini davlat brendini rivojlantirishning strategik vositasiga aylantirdi. Ushbu davlatlarning tajribasi shuni ko'rsatadiki, yirik xalqaro tadbirlarni qabul qilish uchun nafaqat sport inshootlari infratuzilmasi, balki mehnat huquqi (xorijiy ishchi kuchi sharoitlari), xavfsizlik va intellektual mulk huquqi (efir huquqlari, savdo belgilari himoyasi) sohalarida ham maxsus, tadbirga xos qonunchilik paketlarini tayyorlash zarur bo'ladi.

Kanaatimizcha, O'zbekiston, mintaqaviy sport tadbirlarini (masalan, Markaziy Osiyo o'yinlari yoki Islom hamjamiyati o'yinlari) qabul qilish istiqbolini ko'zda tutgan holda, aynan mana shu "tadbirga xos maxsus qonunchilik" (event-specific legislation) tajribasini o'rganishi lozim – bunda vaqtinchalik, faqat tadbir davri uchun amal qiluvchi soddalashtirilgan viza, bojxona va litsenziyalash tartib-taomillari alohida qonun hujjati bilan belgilanadi.

Bizningcha, "Jismoniy tarbiya va sport to'g'risida"gi qonunga (yoki alohida qonun hujjatiga) sportchining huquqiy maqomini kompleks tartibga soluvchi alohida bob kiritilishi lozim, unda sportchining mehnat-huquqiy (ish haqi, dam olish, ijtimoiy sug'urta) va sport-tashkiliy (federatsiya reglamentlariga bo'ysunish, diskvalifikatsiya) maqamlari o'rtasidagi nisbat aniq belgilanishi, xususan sport travmasi natijasida faoliyatni davom ettira olmaslik holatlarida ijtimoiy himoya kafolatlari alohida ko'rsatilishi kerak.

Kanaatimizcha, voyaga yetmagan sportchilar bilan tuziladigan professional va yarim-professional shartnomalarni maxsus tartibga soluvchi normalar joriy etilishi zarur: bunga shartnomaning maksimal muddati, ota-onalar yoki vasiylarning yozma roziligini majburiy shart sifatida belgilash, shuningdek voyaga yetganidan so'ng shartnomani qayta ko'rib chiqish (yoshlik davrida imzolangan noqulay shartlarni bekor qilish) huquqini nazarda tutuvchi mexanizm kiradi.

Bizningcha, bu borada Yevropa Ittifoqi mamlakatlarida qo'llaniladigan "yoshlar himoyasi" (youth protection) qoidalari o'rganilishi foydali bo'lar edi.

Bizning fikrimizcha, eng dolzarb va amaliy ahamiyatga ega taklif – O'zbekiston Savdo-Sanoat palatasi huzuridagi Xalqaro tijorat arbitraj sudi tajribasi asosida, milliy sport federatsiyalari, Milliy Olimpiya qo'mitasi va Sport vazirligi ishtirokida "O'zbekiston sport arbitraji" nomli ixtisoslashgan doimiy faoliyat yurituvchi arbitraj muassasasini tashkil etishdir.

Bunday institut, kanaatimizcha, kichik va o'rta miqyosdagi ichki sport nizolarini (klub-sportchi, sportchi-federatsiya) tezkor va arzon tartibda hal etish imkonini berib, faqat eng murakkab yoki xalqaro elementga ega nizolarni CAS yurisdiksiyasiga qoldirishi mumkin edi. "Xalqaro tijorat arbitraji to'g'risida"gi qonunda mustahkamlangan arbitraj bitimi, arbitrlarni tayinlash va arbitraj qarorlarini ijro etish mexanizmlari ushbu yangi institut uchun tayyor huquqiy andoza vazifasini bajarishi mumkin.

Bizningcha, Milliy antidoping agentligi tuzilmasidagi natijalarni boshqarish va intizomiy eshituv komissiyalari tarkibiga sport huquqi bo'yicha ixtisoslashgan, agentlikdan mustaqil faoliyat yurituvchi huquqshunoslarni doimiy asosda jalb etish tartibi joriy etilishi lozim. Bu, bir tomondan, Butunjahon antidoping kodeksining qat'iy javobgarlik tamoyiliga rioya qilingan holda, ikkinchi tomondan – sportchining adolatli eshituv huquqini amalda kafolatlaydi.

Sport sohasidagi davlat boshqaruvi vakolatlarining mujmalligini bartaraf etish maqsadida, kanaatimizcha, Bosh vazir o'rinbosari raisligida barcha manfaatdor vazirliklar (Sport, Sog'liqni saqlash, Oliy ta'lim, Maktabgacha va maktab ta'limi) vakillaridan iborat doimiy faoliyat yurituvchi Muvofiqlashtiruvchi kengash tashkil etilishi, uning yig'ilishlari muntazam (kamida choraklik) tartibda o'tkazilishi va qarorlari barcha ishtirokchi vazirliklar uchun majburiy tavsiya xarakteriga ega bo'lishi maqsadga muvofiqdir.

Bizning fikrimizcha, paralimpiya va olimpiya sportchilarining xalqaro musobaqalardagi yutuqlari uchun moliyaviy rag'batlantirish (mukofot puli, oylik nafaqa) miqdorlarini tenglashtirish, hech bo'lmaganda ularning nisbati aniq foizli ko'rsatkichlar bilan qonun hujjatida belgilanishi lozim. Bu, kanaatimizcha, nafaqat ijtimoiy adolat tamoyiliga xizmat qiladi, balki paralimpiya sportiga iqtidorli yoshlarni jalb etishning uzoq muddatli rag'batlantiruvchi omili bo'lib ham xizmat qiladi.

Bizningcha, sport tadbirlari tomoshabinlarining maxsus iste'molchi sifatidagi huquqlarini (chipta shartnomasi, tadbir sifati, xavfsizlik kafolatlari) tartibga soluvchi alohida qoidalar ishlab chiqilishi hamda sport federatsiyalari bilan bukmekerlik operatorlari o'rtasida shubhali tikish faolligi to'g'risida majburiy axborot almashish protokoli joriy etilishi lozim. Bu ikki chora, kanaatimizcha, birgalikda sport musobaqalari yaxlitligini (integrity) ta'minlashning zamonaviy institutsional negizini tashkil etadi.

Bizning fikrimizcha, "sportchi martabasi" tushunchasini qonun darajasida mustahkamlash va martaba yakunlangandan so'ng qayta ixtisoslashuv (retraining) dasturlari, ijtimoiy sug'urta stajini hisoblashning maxsus tartibi hamda martaba davomida olingan jarohatlar bo'yicha uzoq muddatli tibbiy kuzatuv kafolatlarini nazarda tutuvchi maxsus normalar ishlab chiqilishi zarur. Bunday tizim, kanaatimizcha, yosh avlodni professional sportga jalb etishning ijtimoiy jozibadorligini oshirishning uzoq muddatli omili bo'lib xizmat qiladi.

VI. Xulosa

O'tkazilgan tadqiqot natijasida biz quyidagi asosiy xulosalarga keldik.

Birinchidan, sport huquqi O'zbekiston yuridik fanida fuqarolik, mehnat, ma'muriy va xalqaro huquq elementlarini o'zida mujassam etgan mustaqil kompleks huquq sohasi sifatida shakllanish jarayonini boshdan kechirmoqda, bu jarayon 2026-yildagi yangi "Jismoniy tarbiya va sport to'g'risida"gi qonunning qabul qilinishi bilan yangi bosqichga kirdi.

Ikkinchidan, mavjud yutuqlarga – xususan, antidoping sohasidagi xalqaro yetakchi mavqega – qaramasdan, sportchining huquqiy maqomidagi dualizm, professional shartnomalar va

transfer tizimidagi bo'shliqlar, milliy sport arbitraji institutining yo'qligi hamda davlat boshqaruvi vakolatlarining muajalligi kabi bir qator tizimli muammolar saqlanib qolmoqda.

Uchinchidan, Rossiya Federatsiyasi, Fransiya va xalqaro sport tashkilotlari (XOQ, FIFA, CAS) tajribasining qiyosiy tahlili shuni ko'rsatadiki, O'zbekiston o'zining mavjud institutsional salohiyatidan (xususan, Xalqaro tijorat arbitraj sudi tajribasidan) foydalangan holda, milliy sport huquqi tizimini ancha samarali takomillashtirish imkoniyatiga ega.

To'rtinchidan, kanaatimizcha, yuqorida keltirilgan takliflar – sportchining huquqiy maqomini kompleks tartibga solish, yosh sportchilarni maxsus himoya qilish, milliy sport arbitrajini tashkil etish, antidoping intizomiy tribunalini mustahkamlash, idoralararo muvofiqlashtirishni institutsionalizatsiya qilish va paralimpiya sportchilari uchun moliyaviy tenglikni ta'minlash – ilmiy muhokama va amaliy sinovdan o'tkazilishga loyiqdir.

Yakun sifatida shuni ta'kidlash joizki, O'zbekiston Respublikasida sport huquqining izchil rivojlanishi nafaqat mamlakatning xalqaro sport maydonidagi obro'sini oshiribgina qolmay, balki sportchilarning huquq va qonuniy manfaatlarini har tomonlama himoya qiluvchi, adolatli va shaffof milliy sport tizimini shakllantirishning huquqiy negizini yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi (2023-yildagi tahrirda), 41-modda.
2. O'zbekiston Respublikasining 1992-yil 14-yanvardagi 513-XII-son "Jismoniy tarbiya va sport to'g'risida"gi Qonuni.
3. O'zbekiston Respublikasining 2015-yil 4-sentabrdagi O'RQ-394-son "«Jismoniy tarbiya va sport to'g'risida»gi Qonunga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish haqida"gi Qonuni. URL: <https://lex.uz/docs/-2742233>
4. O'zbekiston Respublikasining 2026-yil 24-martdagi O'RQ-1123-son "Jismoniy tarbiya va sport to'g'risida"gi Qonuni (yangi tahrir). URL: <https://www.lex.uz/uz/docs/-8093787>
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 3-yanvardagi PQ-3457-son "O'zbekiston Respublikasi Milliy antidoping agentligi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori.
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 6-apreldagi PQ-5057-son "O'zbekiston Respublikasi Milliy antidoping agentligi faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori.
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 8-maydagi PQ-149-son "Ma'muriy islohotlar doirasida O'zbekiston Respublikasi Milliy antidoping agentligi faoliyatini samarali tashkil qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori.
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 11-dekabrdaqi PQ-373-son qarori.
9. O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 5-avgustdagi "Xalqaro tijorat arbitraji to'g'risida"gi qonuni.
10. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 6-iyundagi 268-son "Davlat sport-ta'lim muassasalari faoliyatini mutlaqo yangi tizim asosida tashkil qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori.
11. Мусаев Э.Т. Правовое регулирование спортивных отношений: Монография. – Ташкент: ТДЮУ, 2020.
12. Musaev E.T. Sport shartnomalar huquqi: Darslik. – Toshkent: TDYU, 2024.

13. Xayotov A. Sport huquqining vujudga kelishi va rivojlanish bosqichlari // Sport ilm-fanining dolzarb muammolari. 2023. Jild 1, № 2. 107–113-b.
14. Xayotov A. Sportchi maqomining huquqiy tabiati va o'ziga xos xususiyatlari // Sport ilm-fanining dolzarb muammolari. 2024. Jild 2, № 2. 108–112-b.
15. Xayotov A. O'zbekistonda sport hakamlari faoliyatini huquqiy tartibga solishning o'ziga xos jihatlari // Sport ilm-fanining dolzarb muammolari. 2023. Jild 1, № 4.
16. Xayotov A. Xalqaro Olimpiya Qo'mitasining xalqaro huquqiy layoqati masalalari // Sport ilm-fanining dolzarb muammolari. 2023. Jild 1, № 1.
17. Narimanov B., Xayotov A. Xalqaro sport tadbirlarida sportchilar va ishtirokchilarning huquqlarini buzganlik uchun tashkilotchi davlatning xalqaro-huquqiy javobgarligi // Sport ilm-fanining dolzarb muammolari. 2025. Jild 3, № 2.
18. Rustamov X. Sport huquqida shartnomaviy munosabatlarning o'ziga xos xususiyatlari // Modern Science and Research. 2025. Jild 4, № 5. 1240–1243-b.
19. O'zbekiston futbol assotsiatsiyasi. Futbolchilar maqomi va transferi bo'yicha reglament. – Toshkent, 2021.
20. FIFA. Regulations on the Status and Transfer of Players. – Zurich: FIFA, 2023.
21. Court of Arbitration for Sport. Statutes of the Bodies Working for the Settlement of Sports-Related Disputes. – Lausanne: CAS/TAS.
22. International Olympic Committee. Olympic Charter. – Lausanne: IOC.
23. World Anti-Doping Agency. World Anti-Doping Code. – Montreal: WADA, 2021 (2027-yil tahriri loyihasi).
24. Stadion.uz. O'zbekiston — "Jahon antidoping kodeksi–2027" talablariga qonunchiligini moslashtirgan dunyodagi birinchi davlat bo'ldi, 2026. URL: <https://stadion.uz/uz/news/detail/562503>
25. Milliy antidoping agentligi // Vikipediya. URL: https://uz.wikipedia.org/wiki/Milliy_antidoping_agentligi
26. Federal'nyy zakon Rossiyskoy Federatsii ot 04.12.2007 № 329-FZ "O fizicheskoy kul'ture i sporte v Rossiyskoy Federatsii".
27. Code du sport (France). – Paris: Legifrance.
28. Xalqaro tijorat arbitrajida arbitraj bitimining ahamiyati: ingliz huquqi va amaliyoti // CyberLeninka, 2022.
29. Adaptiv jismoniy tarbiya va sport bo'yicha me'yoriy-huquqiy hujjatlar to'plami. URL: <https://renessans-edu.uz>
30. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining jismoniy imkoniyati cheklangan va nogironligi bo'lgan shaxslar sportini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risidagi qarori. URL: <https://lex.uz/acts/-5426278>
31. Sport huquqi: fuqarolarning maxsus sport xizmatlari iste'molchisi sifatidagi huquqlari // Sport ilm-fanining dolzarb muammolari. URL: <https://sport-science.uz/index.php/journal/catalog/category/law>